

Xusanov Samariddin,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
e-mail: samariddin.hm_90@mail.ru



JINS OMILLARIDA MEHNAT MOTIVATSIYASI NAMOYON BO'LISHINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehnat motivatsiyasi tushunchasining turli ko'rinishlarining asoslari yoritilgan. Xususan, erkalar va ayollarning turli xildagi mehnat motivatsiyasi ko'rsatkichlaridagi o'xshash va farqli statistik farqli ko'rinishlari tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются основы различных аспектов концепции трудовой мотивации. В частности анализируются схожие и различные статистические различия в различных показателях трудовой мотивации мужчин и женщин.

Annotation. This article covers the basics of various aspects of the concept of work motivation. In particular, analyzes the similar and different statistical differences in the performance of men and women in various indicators of work motivation.

Tayanch so'zlar: motivatsiya, mehnat motivatsiyasi, gender, ehtiyoj, maqsad, ruhiy tayyorgarlik, natija, harakat, mukofotning qiymati, qoniqish adolatli mukofot, ichki va tashqi tashabbus.

Ключевые слова: мотивация, трудовая мотивация, гендер, потребность, цель, умственная подготовка, результат, усилие, ценность вознаграждения, удовлетворение, справедливое вознаграждение, внутренняя и внешняя инициатива.

Keywords: motivation, work motivation, gender, need, goal, mental preparation, result, effort, reward value, satisfaction, fair reward, internal and external initiative.

Keyingi yillarda respublikamizda ayollar va erkaklar huquqlari va erkinliklarini tenglashtiruvchi ko'plab qonunlar qabul qilinib, amaliy ishlar faol tarzda muttasil olib borilmoqda.

Kirish. Keyingi yillarda respublikamizda ayollar va erkaklar huquqlari va erkinliklarini tenglashtiruvchi ko'plab qonunlar qabul qilinib, amaliy ishlar faol tarzda muttasil olib borilmoqda. Quyida shulardan ayrimlarini misol qilib keltirib o'tamiz. "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi¹, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son²li qaroriga ko'ra:

– xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lig'ini saqlash, ayollar sportini rivojlantirish, mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashish;

– xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklariga resurs mablag'larini belgilangan tartibda joylashtirish;

– xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashish kabi bir nechta davlat dasturlari va imkoniyatlarni yaratib berish nazarda tutilgan.

Asosiy qism. Ushbu yaratib berilgan imkoniyatlar natijasini D.A.Leontevning "Hayot mazmuni yo'nalganligi" metodikasining sinaluvchilar jinsiga ko'ra tahlilini statistik ko'rsatkichlari prizmasida ko'rib chiqqanimizda, quyidagi natijalar aniqlandi: hayotning umumiy mazmuni ko'rsatkichi ($U=11009,500$; $p>0,05$), hayotiy maqsadlar ($U=11686,000$; $p>0,05$), hayot jarayoni ($U=10736,000$; $p>0,05$), hayot natijaviyligi ($U=11571,000$; $p>0,05$), nazorat lokusi ($U=11552,000$; $p>0,05$), hayot boshqaruvchanligi ($U=10988,500$; $p>0,05$). Natijalardan ko'rishimiz mumkinki, ushbu ko'rsatkichlarda ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar qayd etilmadi.

Keltirilgan ahamiyatsiz farqlardan bizga ma'lum bo'ladiki, mehnat motivatsiyasi erkak va ayollarda hayot mazmunining anglaganligi, hayotiy maqsadlarning mavjudligi, hayotdan qoniqishi, o'zini kuchli va faol hamda o'z hayotini nazorat qiluvchi va qaror qabul qiluvchi sifatida ko'rishi shaxsning hayot mazmuni ekanligi sifatida ko'riladi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5260791#-5263271>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-5320582?ONDATE=01.01.2024%2000>

1-jadval

D.A.Leontevning “Hayot mazmuni yo‘nalganligi” metodikasining sinaluvchilar jinsiga ko‘ra tahlili (Mann-Uitni – U mezon)

№	Shkalalar	O‘rtacha daraja		Statistik qiymat	
		Erkaklar (n=126)	Ayollar (n=188)	U	p
1	Hayotning umumiy mazmuni	164,12	153,06	11009,500	0,290
2	Hayotiy maqsadlar	156,25	158,34	11686,000	0,841
3	Hayot jarayoni	166,29	151,61	10736,000	0,160
4	Hayot natijaviyligi	159,67	156,05	11571,000	0,729
5	Nazorat lokusi	159,82	155,95	11552,000	0,711
6	Hayot boshqaruvchanligi	164,29	152,95	10988,500	0,277

2-jadval

Ellersning “Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi” metodikasining sinaluvchilarning jinsiga ko‘ra tahlili (Mann-Uitni – U mezon)

№	Shkalalar	O‘rtacha daraja		Statistik qiymat	
		erkak (n=126)	ayol (n=188)	U	p
1	Muaffaqiyatga intilish motivatsion testi	163,71	163,71	11061,5	0,319

Ellersning “Hayot mazmuni yo‘nalganligi” metodikasiga muvofiq sinaluvchilarni jinsiga ko‘ra solishtirganimizda ($U=11061,5$; $p>0,05$) “Muaffaqiyatga intilish motivatsion testi” ko‘rsatkichlarida ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar qayd etilmadi. Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi o‘xshash bo‘lishining sababi shundaki, har ikkala jins ham inson sifatida o‘zini rivojlantirish, xavfsizlikka erishish, ijtimoiy hurmat va tan olinishni xohlaydi. Ular o‘z hayotini yaxshilash va o‘z orzularini amalga oshirish uchun motivatsiyaga ega. Har ikki jinsda ham muvaffaqiyatga intilishning zahirida shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va eng yuqori potensialga erishish istagi yotadi. Bunga davlat organlarining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda

Qochish motivi shkalasida erkaklarda o'rtacha rang qiymati 140,87 ni, ayollarda 168,64 ni tashkil etdi (U=9749,000; p<0,05). Ayollarda tanlagan kasbining past-balandini bilgani holda muammoli vaziyatdan qochish orqali mehnat motivatsiyasini to'g'ri yo'nalganligini saqlab qolish darajasi ustunlik qilar ekan.

imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi vakolatlari haqidagi O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda 2019-yil 2-sentyabrdagi O'RQ-562-son³ Qonun 13-moddasi bilan boyitilgan.

Insonning intilish darajasi ko'pchilikning nazarida gender xususiyatlarda bir-biridan farq qilinuvchi xususiyat sifatida taasurol qoldiradi. Bizning tadqiqotimizda Gerbachevskiyning "Intilish darajasini aniqlash metodikasi" testining jins bo'yicha farqlari solishtirilganda, ichki motiv (11546,000; p>0,05), kognitiv motiv (11569,500; p>0,05), raqobat motivi (10998,500; p>0,05), o'z-o'zini hurmat qilish motivi (U=10698,500; p>0,05), natijalarning ahamiyati (U=10929,500; p>0,05), vazifaning murakkabligi (U=11746,500; p>0,05), iroda kuchi (U=11626,500; p>0,05), natijalarga erishilganlik darajasini baholash (U=11606,000; p>0,05), o'z imkoniyatlarini baholash (U=11794,500; p>0,05), quvvatni safarbar eta olganlik darajasi (U=11435,500; p>0,05), natijalar namunasi (U=11198,500; p>0,05) kabi ko'rsatkichlarda ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar qayd etilmadi. Yuqoridagi ahamiyatsiz farqlardan ma'lum bo'ladiki, shaxsning intilishlari darajasi o'zini qobiliyatli deb hisoblagan murakkablik darajasidagi maqsadga erishish istagida namoyon bo'lib, faoliyat turi va shaklining o'xshashligi sabab sinaluvshilarda jinslar bo'yicha ahamiyatli tafovutlar qayd etilmagan. Shuningdek, shaxsda kasbiy yo'nalganlikni belgilovchi ehtiyojlar tizimidagi motivlarning turlari, o'ziga baho hamda intilish shakllari jins farqlaridan qat'iy nazar rivojlanish tendensiyasida bo'ladi.

Qochish motivi shkalasida erkaklarda o'rtacha daraja qiymati 140,87 ni, ayollarda esa 168,64 ni tashkil etdi (U=9749,000; p<0,05). Ayollarda tanlagan kasbining past-balandini bilgani holda muammoli vaziyatdan qochish orqali mehnat motivatsiyasining to'g'ri yo'nalganligini saqlab qolish darajasi ustunlik qilar ekan. Ayollarning qochish motivatsiyasining yuqori bo'lishi ularning jamiyatda faol ishtirok etishlariga va o'z imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan ishtiyoqini ham ko'rsatadi. Bu motivatsiyani qo'llab-quvvatlash, ayollarga ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda yanada ko'proq imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Erkaklarda esa aksincha, ularning tabiiy jihatdan tavakkalchiligi sababli ushbu shkalada past natijalar qayd etilganidan ko'rishimiz mumkin. Faoliyatni o'zgartirish uchun sabab shkalasida erkaklarda o'rtacha daraja qiymati 141,98 ni, ayollarda esa 167,90 ni tashkil etdi. (U=9889,000;

³ O'zbekiston Respublikasining 02.09.2019 yildagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-4494849>

$p < 0,05$). Bu shkala bo'yicha ayollarda chiqqan yuqori ball ularning mehnat faoliyatini tez-tez o'zgartirishlari bilan tafsiflanadi. Chunki ular turmush qurushi, farzandli bo'lishi sababli ular mehnat faoliyatini o'zgartirish motivi sodir bo'ladi. Erkaklarda bu jarayon bir muncha boshqacha tarzda namoyon bo'ladi. Sababi ular o'zlari qulay deb topgan ish muhitini o'zgartirishga tashqi ta'sirlar ko'p bo'lmaganligi sababli deyarli faoliyatlarini o'zgartirmaydilar. Kutilayotgan natijalar darajasi shkalasida erkaklarda o'rtacha rang qiymati 169,76 ni, ayollarda 149,28 ni tashkil etdi ($U=10299,500$; $p < 0,05$). Erkaklar va ayollar o'rtasidagi kutilayotgan natijalar darajasi shkalasidagi farq, ular o'zlarining kelajakdagi natijalari va muvaffaqiyatlarini qanday baholashlarini aks ettiradi. Erkaklar guruhida o'rtacha qiymatning yuqori bo'lishi, ular o'z kelajagi, maqsadlariga erishish yoki hayotdagi kutilayotgan muvaffaqiyatlarga nisbatan ijobiy va optimistik qarashga ega ekanliklarini ko'rsatadi. Ayollar guruhidagi o'rtacha qiymatning pastroq bo'lishi esa, ayollarning kelajakka bo'lgan kutilmalari va umidlari erkaklarga nisbatan biroz kamroq yoki ehtimol, realistikroq bo'lishi mumkinligini anglatadi.



1-rasm "Intilish darajasini aniqlash metodikasi"ning sinalluvchilarning jinsiga ko'ra statistik farqlari


Tashabbuskorlik shkalasida erkaklarda o'rtacha daraja qiymati 140,12 ni, ayollarda 169,15 ni tashkil etdi ($U=9654,000$; $p < 0,01$). Ayollarda tashabbuskorlik motivatsiyasining yuqori bo'lishi bir nechta omil — ijtimoiy, madaniy, psixologik va iqtisodiy faktorlar natijasidir. Ayollar o'zlarini jamiyatda va oilada faollashtirish, yangi imkoniyatlar yaratish va o'z maqsadlariga erishish uchun tashabbuskorlikni ko'rsatishadi. Bu, o'z navbatida, ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga yordam beradi. Ayollar o'zlarining jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, oila va

***Ayollarda
muvaffaqiyatga
intilish shkalasida
erkaklarga
nisbatan
yaxshiroq natijalar
ko'rsatishining
sababi ko'plab
omillarga,
jumladan, oilaviy
va ijtimoiy
mas'uliyatlarni o'z
zimmasiga olish,
yuqori emotsional
intellekt,
qat'iyatlilik,
ta'limga bo'lgan
yuqori ehtiyoj,
stereotiplarga
qarshi kurashish
va jamiyatdagi o'z
o'rnini topishga
bo'lgan intilish
bilan bog'liq.***

ijtimoiy hayotdagi rollarini kengaytirish uchun tashabbus ko'rsatishga moyilroq bo'lishlari mumkin. Bu holat ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda o'zlarining imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan istak va harakatlarini aks ettiradi. Bu motivatsiyaning yuqori bo'lishi ayollarning jamiyatda o'z o'rnini yanada mustahkamlashga intilishlarini va buning uchun ularga tashabbuskorlik ko'rsatish zaruriy ehtiyoj sifatida qaraladi.

“Subyektiv nazorat darajasini aniqlash” metodikasining sinaluvchilar jinsiga ko'ra tahlilini ko'rib chiqqanimizda, umumiy nazorat ($U=11278,500$; $p>0,05$), muvaffaqiyatsizlikka intilish ($U=10767,000$; $p>0,05$), oilaviy munosabatlar ($U=11709,000$; $p>0,05$), ishlab chiqarish integral shklasi ($U=11364,000$; $p>0,05$), shaxslararo munosabat integral shkalalarida ($U=11583,500$; $p>0,05$) ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. Yuqoridagi ishonchsiz, ahamiyatsiz natijalardan ma'lum bo'ladiki, sinaluvchilarda jins bo'yicha tafuvutda muvaffaqiyatsizlikka intilish, oilaviy munosabatlar, ishlab chiqarish integral shklasi, shaxslararo munosabat integral shkalalarida o'zini tutish, o'ziga irodaviy kuch berish deyarli bir xil darajada shakllangan deb aytishimiz mumkin.

Shuningdek, metodikaning ikkita shkalasida muvaffaqiyatga intilish va salomatlik integral shkalalarida ishonch darajasidagi tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Muvaffaqiyatga intilish shkalasida erkaklarda o'rtacha daraja qiymati 145,23 ni, ayollarda 165,72 ni tashkil etdi ($U=10298,500$; $p<0,05$). Ko'rishimiz mumkinki, bu shkalada ayollar erkaklardan sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichni ko'rsatishgan. Ayollarda muvaffaqiyatga intilish shkalasida erkaklarga nisbatan yaxshiroq natijalar ko'rsatishining sababi ko'plab omillarga, jumladan, oilaviy va ijtimoiy mas'uliyatlarni o'z zimmasiga olish, yuqori emotsional intellekt, qat'iyatlilik, ta'limga bo'lgan yuqori ehtiyoj, stereotiplarga qarshi kurashish va jamiyatdagi o'z o'rnini topishga bo'lgan intilish bilan bog'liq. Bu faktorlar ayollarni muvaffaqiyatga erishish yo'lida ko'proq motivatsiya va resurslar bilan ta'minlaydi, shuning uchun ular o'zlarining maqsadlariga erishishda yuqori natijalarga erishishadi. Yana ayollar o'z hayotlarining yaxshi bo'lishiga o'zlari sababchi bo'ladilar deb o'ylashlaridir. Erkaklarning bu shkalada past ko'rsatkichlarni ko'rsatganlari esa o'z muvaffaqiyatlarini, mehnat natijalarini omadga, baxtli taqdirga va boshqa insonlarning ta'siriga yo'yadilar.



2-rasm. “Subyektiv nazorat darajasini aniqlash metodikasi”ning muaffaqiyatga intilish shkalasi va salomatlik integral shkalasida sinaluvchilar jinsiga ko‘ra farqi

Salomatlik integral shkalasida erkaklarda o‘rtasha daraja qiymati 141,48 ni, ayollarda 168,23 ni tashkil etdi ($U=9826,000$; $p<0,05$). Ayollarda salomatlik shkalasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichning sababi, bizningcha, ular salomatliklari uchun o‘zlarini javobgar deb hisoblashish. Agar ular kasal bo‘lsalar, faqat o‘zlarini aybdor deb hisoblaydilar va tuzalishda o‘z kuchlariga ishonadilar, bunda ayollar sog‘lom bo‘lish uchun o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila oladilar. Bu shkala bo‘yicha past ko‘rsatkich namoyon qilgan erkaklar esa kasallik va sog‘lomlik bu turli vaziyatlarning mahsuli deb, sog‘lom bo‘lish yoki tuzalish faqatgina boshqa insonlarning, ota-onalari, shifokorlar va turmush o‘rtoqlarining ta’siri va nazorati ostida ro‘y beradi deb hisoblaydilar.

Xulosa. Jinslar orasida mehnat motivatsiyasida farqlar bo‘lishi mumkin, lekin ikkala jins ham ishlashda o‘z maqsadlariga erishish, shaxsiy va professional o‘rinish va yaxshi hayot sifatini ta’minlash uchun rag‘batlanadi. Erkaklar ko‘proq raqobat, muvaffaqiyat va moliyaviy mukofotlarni qadrlashsa, ayollar jamiyatga xizmat qilish, emotsional qo‘llab-quvvatlash va ish-shaxsiy hayot muvozanatiga e’tibor berishadi. Har bir odamning motivatsiya manbai va ishlash tarziga qarab, jinsiy farqlarni hisobga olish mehnat muhiti va rahbariyatni yaxshilashda yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2019-yil 2-sentyabrdagi O'RQ-562-son. <https://lex.uz/docs/-4494849>
2. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Mehnat bozori vaziyatiga oid ma'lumotlar (mehnat resurslari balansi) <https://data.egov.uz/data/61025aa22a2e256d868e82ef>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Motiv>
4. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Work_motivation
5. Vroom, V.H. (1964). Work and motivation. – New York: Wiley.
6. Adams, J.S. (1965): Inequity in social change. In L Berkowitz (Ed.), *Advances in experimental psychology*. – New York: Academic Press.
7. Porter, L.W., & Lawler, E.E. (1968). *What Job Attitudes Tell about Motivation* // *Harvard Business Review*, 46. pp. 118-126.